ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 31.03.2025 · Accepted: 23.04.2025 · Published: 01.06.2025
DOI: https://doi.org/10.64681/z0awvb65

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(3), 2025
www.jnculture.uz

O‘zbekiston kompozitorlari ijodida an’anaviy musiqaning o‘rni va ahamiyati

(The role and significance of traditional music in the works of uzbek composers)

Sherzod Sobirov

Composition and Orchestration department,
The State Conservatory of Uzbekistan, Almazar Street 1
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: sobirovsherzod37@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompozitsiya va musiqa yozishning ijodiy tamoyillari ko‘rib chiqiladi hamda ularning milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati ta’kidlanadi. Unda zamonaviy kompozitsion texnikalar va musiqiy tafakkur uslublari, shuningdek, O‘zbekistondagi bastakorlar ijodida an’anaviy meros va zamonaviy yo‘nalishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy musiqaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar, bastakorlarning individual uslublari va zamonaviy musiqadagi innovatsiyalar muhokama qilinadi. Ayniqsa, ijodiy jarayonda milliy an’analar va innovatsion usullar bilan individual yondashuvni uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, musiqa yozish, an’anaviy musiqa merosi, zamonaviy yo‘nalishlar, milliy musiqa, innovatsiyalar.

Abstract

This article explores the creative principles of composition and music writing, highlighting their importance in the national musical culture. It analyzes modern compositional techniques and styles of musical thinking, as well as the interrelation between traditional heritage and contemporary trends in the creative work of composers in Uzbekistan. The study discusses the main factors influencing the development of national music, the individual styles of composers, and innovations in contemporary music. Special attention is given to the integration of individual approaches in the creative process with national traditions and innovative methods.

Keywords: composition, music writing, traditional musical heritage, contemporary trends, national music, innovations.

Аннотация

В данной статье рассматриваются творческие принципы композиции и написания музыки, подчёркивая их значимость в национальной музыкальной культуре. Анализируются современные композиционные техники и стили музыкального мышления, а также взаимосвязь между традиционным

наследием и современными тенденциями в творчестве композиторов Узбекистана. В исследовании обсуждаются основные факторы, влияющие на развитие национальной музыки, индивидуальные стили композиторов и нововведения в современной музыке. Особое внимание уделяется интеграции индивидуального подхода в творческий процесс с национальными традициями и инновационными методами.

Ключевые слова: композиция, написание музыки, традиционное музыкальное наследие, современные тенденции, национальная музыка, инновации.

O‘zbekiston musiqasi tarixan boy an’analarga ega bo‘lib, o‘zining rang-barangligi, chuqur ildizlari va noyob melodik tuzilmalari bilan ajralib turadi. Kompozitorlik va bastakorlik ijodi milliy musiqiy madaniyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning turli viloyatlarida musiqiy meros, folklor va an’anaviy musiqaning saqlanib qolgan shakllari bugungi kunda zamonaviy kompozitorlar tomonidan yangi uslub va texnikalar bilan boyitilmoqda. Kompozitorlik va bastakorlik faoliyati — bu san’at, ilm va shaxsiy tafakkur uyg‘unligidir. Asar yaratish jarayonidagi ijodiy tamoyillar har bir kompozitorning dunyoqarashi va tafakkur darajasini namoyon etadi.

Bastakorlik — bu nafaqat musiqa asarini yaratish jarayoni, balki milliy madaniyat, estetik qarashlar va shaxsiy hissiyotlarni musiqa orqali ifodalash san’atidir. Kompozitorlik esa ushbu jarayonning texnik, nazariy va ijodiy jihatlarini qamrab oladi.

Bastakorlikning aynan qaysi davrda qaror topganligini e’tirof etish mushkul. Balki u ilk musiqa cholg‘ulari yaratilgan paytda vujudga kelib, mazkur cholg‘ularning ilk ijrochilarini qaysidir ma’noda bastakorlar sifatida e’tirof etish mumkin. Ammo tarixiy manbalarda 6-7 asrlar Xusrav Parviz saroyida ijod qilgan afsonaviy Borbad Marvaziyning nomi ilk ulkan bastakor sifatida Firdavsiyning “Shohnoma” asarida tilga olinadi.

“Sharq musiqa dunyosida bir yarim ming yillik tarixga ega bo‘lgan bastakorlik san’atini bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelayotgan ijod namunasi

sifatida tilga olish mumkin Bastakor so‘zi tojikcha (“basta” - bog‘langan, “kor” - ish, ishlovchi ma’nolarida) kuyni tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bog‘lovchi demakdir; hozirda “kompozitor” (kompozitsiya etuvchi, kuy yaratuvchi) ma’nosida ishlatiladi” [2,11-b.].

Aytish joizki, o‘tmishda bastakor avvalo kuy-qo‘shiq yaratuvchisi, hamda mohir sozanda va xonanda ham bo‘lishi joiz bo‘lgan. Umumsharq mumtoz musiqasi asosan og‘zaki an’analar zamirida rivojlanib kelgan, demakki yangi ijod mahsulining ilk ijrochisi ham uning muallifi bo‘lishi darkor edi. Musiqiy risolalarda Ali G‘aribiy, Mavlono Shayxiy, Xoja Yusuf Burhon, Xo‘ja Abdulloh Sadriy, Qulmuhammad Udiy kabi qator darg‘a ijodkorlarning muborak ismlari bitilgan. Nomlari tilga olingan ushbu zotlarning deyarli barchasi musiqaning nazariy asoslarini puxta bilishlari bilan bir qatorda o‘zlari yaratgan asarlarning mohir ijrochilari ham sanalgan. Ammo, afsuslar bo‘lsinkim, ushbu bastakorlarning asarlari haqida to‘la tassavurlarni to‘laqonli hosil qilish imkoniyati bizda mavjud emas.

Bastakor o‘tmishda turli vazifalarni bajargan. Dastlab u yangi, original kuy va ashulalar yaratuvchisidir. Ikkinchidan, bastakor tayyor kuylar mavzuida ularning ritmik va kuy variantlarini ham yaratgan. Bunda bastakor kuy yo‘llariga yangi-yangi epizodlar, tayyor holdagi avjlar kiritgan. “Ashula yo‘llariga yangi she’rlarni ustalik bilan bog‘lab tushira bilgan san’atkorlar ham bastakor nomiga mansub bo‘lgan.

Bastakorlikka taalluqli bo‘lgan musiqa asarlari – kuy va ashula yo‘llari o‘tmish olimlar yaratgan nazariy risolalarda “alhon” (arabcha “lahn” so‘zining ko‘pligi) atamasi bilan ataladi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, alhon (kuy) – uzunligi jihatidan cheklangan vaqt (zamon) o‘lchovlarida tartiblangan turli balandliklardagi nag‘ma (tovush)lar birikmasidir. X-XIII asrlarda alhon turlari ruhiy ta’sir etish xarakteri nuqtayi nazaridan uch xil, deb ko‘rsatiladi” [1,65-b.].

Musiqa madaniyatimiz tarixida Navoiy va Jomiy zamonida ijod etgan juda ko‘p bastakorlarning nomlari saqlanib qolgan. Ularning hayoti va ijodi haqida o‘sha

davrlarga oid tazkiralarda, tarixiy, adabiy, memuar xarakteridagi asarlarda qimmatli ma’lumotlar keltiriladi.

T.Jalilov, Yu.Rajabiy, S.Kalonov, K.Jabborov, N.Hasanov, G‘.Toshmatov, T.Sodiqov va boshqalar ijodida maqomlarning ta’siri yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, ular maqomlarning yengilroq yo‘llari – tarona va ufarlari, savt va mo‘g‘ulchalari hamda ularning shohobchalari asosida ko‘pgina ashulalar yaratdilar. Bastakorlarning maqom yo‘llari asosida yangi-yangi asarlari mo‘g‘ulcha ham savtlar va ularning shoxobchalari darajasida ishlangan bo‘lib, ta’sirli va original ashulalardir. Bunday asarlar, shubhasiz, musiqa madaniyati tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ko‘plari zamonaviy mavzularda yozilgan she’rlar bilan ham ijro etiladi. Ko‘pgina kompozitorlarimiz qatori bastakorlarimiz mo‘g‘ulcha va savtlardan sahna asarlari uchun ham foydalanadilar.

Maqomlar asosida yaratilgan monodik musiqa asarlarining ham o‘zbek-tojik xalqlari musiqa boyliklari orasida katta badiiy qimmatga ega ekanligi hammaga ma’lum. Shuning uchun ham Shashmaqom zamonaviy mavzuda badiiy yuksak asarlarni yaratishda katta manba bo‘lib qoldi. O‘zbekiston musiqasi tarixi o‘zining boy an’analari, rang-barang shakllari va janrlari bilan dunyo musiqasida alohida o‘ringa ega. Ushbu musiqaning asosiy unsurlaridan biri maqom san’atidir. Maqomlar musiqiy va she’riy shakllarning uyg‘unlashuvi sifatida o‘ziga xos san’at turi bo‘lib, butun Markaziy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan. Maqomlar nafaqat estetik san’at shakli, balki xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish vositasidir.

An’anaviy musiqiy merosning saqlanishi va uni zamonaviy shakllarda talqin qilish bugungi kunda o‘zbek kompozitorlarining ijodida katta ahamiyatga ega. Kompozitorlar, ayniqsa, maqom va xalq musiqasining boshqa shakllaridan foydalanib, ularni yangi texnologiyalar va uslublar bilan boyitmoqdalar. Bu, o‘z navbatida, musiqaning yuksak san’ati va milliy madaniyatning o‘ziga xosligini saqlab qolish imkoniyatini yaratadi.

“Maqomlar o‘zbek musiqasining o‘ziga xos xususiyatlarini, yuksak estetikani va qalbni yurituvchi so‘zlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ushbu musiqiy shakllar nafaqat rasmiy san’atda, balki xalq orasida ham keng tarqalgan bo‘lib, xalqning tasavvuri va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir” [3,147-b.].

Bugungi kunda o‘zbek musiqasi nafaqat o‘zining an’analari bilan, balki zamonaviy kompozitorlik ijodida ham o‘ziga xos yo‘nalishlarni ishlab chiqmoqda. O‘zbekiston musiqasi endi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda. Musiqiy asarlar, ayniqsa, ancha murakkab sanalmish simfonik ijodiyot va xorijiy musiqiy festival va musobaqalarda namoyish etilishi orqali butun dunyo miqyosida kengroq e’tirof etilmoqda.

Bunday rivojlanishning natijasi sifatida, o‘zbek kompozitorlari nafaqat musiqa texnikasida, balki san’atning ijodiy va nazariy jihatlarida ham yangiliklar yaratmoqdalar. O‘zbekiston musiqasining bugungi yuksak darajasi — bu uning ildizlarining mustahkamligi va shu bilan birga, yangi uslublar va texnikalarni kiritish orqali yangilanishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarning natijasidir.

O‘zbek musiqasining simfonik ijodi, ayniqsa, murakkab asarlar va orkestrlarning yaratish yo‘nalishida ancha rivojlandi. Bu san’at shakli, nafaqat an’analarga tayanib, balki zamonaviy musiqiy texnologiyalarni qo‘llash orqali musiqaning yangi shakllarini yaratishga imkon berdi. Ayniqsa, o‘zbek kompozitorlari o‘z asarlarida xalq musiqasining nozik elementlarini simfonik orkestrda uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘zbek simfonik musiqasining rivojlanishi nafaqat texnik jihatdan, balki ma’naviy va estetik nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda musiqaning xalqning ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishi va ularning his-tuyg‘ularini ifodalashda yangi imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbek kompozitorlarining ijodi o‘zining xususiyatlari va uslublari bilan juda boy. Bular orasida xalq musiqasining elementlarini yangi shakllarda namoyish etish va zamonaviy kompozitorlik yondashuvlaridan foydalanish, o‘zbek musiqasining

yangi yo‘nalishlarini yaratmoqda. O‘zbek kompozitorlari o‘z asarlarida an’anaviy musiqaning barcha xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uning yangi shakllarini yaratishda yuksak ijodiy tajribani namoyish etmoqdalar.

Shuningdek, bugungi kunda o‘zbek kompozitorlari nafaqat klassik musiqa shakllarida, balki zamonaviy janrlar, jumladan, elektron musiqada ham muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Bu o‘z navbatida, musiqaning yangi texnologiyalar yordamida yangilanishiga va xalqaro maydonda tan olishiga yordam beradi.

“Kompozitor” lotincha “tuzish”, tartiblash, shakl yaratish ma’nolarini bildirib, uning ham o‘ziga xos tarixi bor. 15-asrlarda Yevropada deyarli har qanday san’at sohasida ijod qilayotgan shaxsga, sirk ustasi, qiziqchi, aktyor, musavvir, musiqachilarga kompozitor deb murojaat qilish urf bo‘lgan. Bugungi kundagi oddiy xalq tili bilan aytganda “artist” iborasi bunga mos keladi. Keyinchalik san’atning har bir tarmog‘ini o‘z nomi bilan atay boshlashgan. Kompozitorlik ijodi ham qaysidir ma’noda bastakorlik san’ati izlaridan boradi. Ya’ni, kompozitor ham bastakor singari biror-bir cholg‘uda ijro malakasiga ega bo‘lishi, cholg‘uning ovoz hajmi, texnik imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, asarning hoh u cholg‘u bo‘lsin, hoh aytim shaklini puxta bilishi, she’riyat qonuniyatlaridan xabardor bo‘lishi lozim.

Kompozitorlarimiz maqomlar asosida romanslar, simfonik poemalar, kamer asarlar yaratdilar. M. Ashrafiyning simfonik orkestr uchun Mo‘g‘ulchai Navo asosida yaratgan “Temur Malik” poemasi, A. Kozlovskiyning “Savti Sarvinoz” asosida yozilgan kvarteti, G. Mushelning Mo‘g‘ulchai Segoh asosida fortepiano va orkestr uchun konserti, S. Boboyevning maqomlar asosida yaratgan poemalari, mazkur kompozitorlar va boshqa ijodkorlarimiz maqomlar asosida yaratgan asarlari shular jumlasidandir. Ular maqomlarga ijodiy yondoshayotganliklari ayniqsa quvonarlidir.

Xulosa qilib aytganda yurtimizda F.Yanov-Yanovskiy, R.Abdullayev, M.Bafoyev, H.Rahimov, A.Mansurov, M.Mahmudov, I.Pinxasov, O.Abdullayeva

singari kompozitorlar san’at arboblari barakali ijod qilmoqdalar. XXI asrda o‘zbek kompozitorligi yangi davrning barcha talablariga javob bera olish uchun innovatsion yondashuvlarga muhtoj bo‘ldi. Yosh zabardast ijodkorlardan esa A.Kim, J.Shukurov, F.Akramov, N. Maxarov, N.Erkayev mazkur yo‘nalishda yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqdalar. Elektron musiqaning jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi zamonaviy kompozitorlar tomonidan o‘z asarlarini yaratishda yangi imkoniyatlarni taqdim etdi. Bunday innovatsiyalarni yaratishda o‘zbek kompozitorlari elektron musiqani, simfonik orkestrni, milliy musiqani va zamonaviy janrlarni uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Zamonaviy ijodkorlar chuqur nazariy bilim va texnik salohiyat bilan birga, raqamli texnologiyalardan ham foydalanmoqdalar. Elektron musiqa, Sibelius nota muharrirlari multimediya vositalari, eksperimentlar XXI asr kompozitorligining asosiy tendensiyalaridan biridir. Shu bilan birga, milliy uslublarga qayta murojaat qilish ham dolzarb masalalardan iri ekanligini e’tirof etish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I. Maqomlar. – Tashkent, 2006.
2. G‘ofurbekov T. Saylanma 70 / G‘ofurbekov T. – Tashkent: Musiqa, 2009. – 275 s.
3. Matyoqubov O. Maqomot. – Tashkent, 2004.
4. O‘zbek xalq musiqasi. V t. 5. Buxoro maqomlari / to‘plovchi va notalarga tushiruvchi Yu. Rajabiy; taxr. I. Akbarov. – Tashkent, 1959.
5. Shashmaqom. T. 1 / yozib olgan Yu. Rajabiy. – Tashkent, 1966.
6. Axmedov M. Yu. Rajabiy: monografiya. – Tashkent, 1980.

References

1. Rajabov, Is’hoq. *Maqomlar*. Tashkent, 2006. (in Uzbek)

2. G‘ofurbekov, T. *Saylanma 70*. Tashkent: Musiqa, 2009. (in Uzbek)
3. Matyoqubov, O. *Maqomot*. Tashkent, 2004. (in Uzbek)
4. *O‘zbek xalq musiqasi*. Vol. 5, *Buxoro maqomlari*. Compiled and notated by Yu. Rajabiy. Edited by I. Akbarov. Tashkent, 1959. (in Uzbek)
5. *Shashmaqom*. Vol. 1. Collected by Yu. Rajabiy. Tashkent, 1966. (in Uzbek)
6. Ahmedov, M. *Yu. Rajabiy: Monografiya*. Tashkent, 1980. (in Uzbek)